O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(1-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 410-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

4. Rashidova G. G. Socio Cultural Approach as a Modern Direction of Teacher Training //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. 2021. – T. 8. – No. 8. – C. 169-172.
5. Rashidova G. G. INTERPRETATION AND INTERDEPENDENCE OF THE CONCEPTS OF «COMPETENT» AND «COMPETENCE» //Theoretical & Applied Science. – 2021. – №. 8. – C. 83-89.
6. Rashidova Gulnoza G‘ulomovna. (2024). IJOD VA ISTEDOD PSIXOLOGIYASINING ILMIY-NAZARIY JOYLARI. *Amerika ijtimoiy fanlar va insoniyat tadqiqotlari jurnali* , *4* (02), 147–151. https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume04Issue02-
7. Gulomovna, R. G. (2022). Talabalarda pedagogik muhitni shakllantirish. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 506-509.
8. Gulnoza, Rashidova, and Soyimnazarov Navro‘zbek. "TA’LIM MUASSASALARIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO‘RSATISHDA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK VAZIYATLARNI TAHLIL ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI." Innovations in Technology and Science Education 2.14 (2023): 680-689.
9. Rashidova Gulnoza, and Soyimnazarov Navro‘zbek Baxtiyor o‘gli. "O‘SMIRLARDAGI PSIXOSOMATIK KASALLIKLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." Journal of Integrated Education and Research 2.8 (2023): 18-23.

TAFAKKURNING BILISH JARAYONLARI TIZIMIDAGI O‘RNI

Samatova Nigora Davlataliyevna,
Sufxiddinov Sayfiddin Qahramon o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
nsamatova82@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz tafakkurning bilish jarayonlari bilan aloqadorligini,bilish jarayonlari tizimidagi g‘rnini kg‘rib g‘tishimiz mumkin bg‘ladi.Tafakkur ongning eng yuksak shakli bg‘lib,barcha bilish jarayonlari bilan bog‘liq bg‘ladi.shunday ekan tafakkurning sezgi,idrok,xotira,tassavur bilan bog‘liq jarayonlarni hamda uning fatrqli tomonlarini aniqlab olamiz.

Kalit so‘zlar: Analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, sistemalashtirish, klassifikatsiyalash, konkretlash-tirish,abstraksiya,empirizm.

Kirish. Inson atrof-olam (narsa, hodisalar, insonlarni) va o‘zini turli xil faoliyatlarni bajarish va bu ob’ektlarga ta’sir ko‘rsatgan holda ma’lum bir ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga molik maqsadlarga erishish uchun o‘rganadi. Sezgi, idrok va tasavvurlar ixtiyorsiz diqqat va ko‘rgazma-obrazli xotira bilan hamkorlikda insonga aniq bir ob’ektlar va ularning bevosita o‘rganiladigan xossalari haqida ma’lumot beradilar. Psixik aks ettirishning bu shakllari inson tomonidan ob’ektiv reallikni bilishning hissiyotli asoslaridir. Lekin alohida jismlar va real olam hodisalarini bilish istalgan amaliy vazifani hal etishda yuzaga keladigan uch ahamiyatga ega bo‘lgan

savolga javob topish uchun etarli emas. Bu savollar: «yuaga kelgan vaziyatda nimani, qay tarzda bajarish mumkin, va bu harakat natijasida nima hosil bo‘ladi?»dan iborat.

Bu savollarga javob izlashda bizlarga tafakkur yordam beradi. Avvalambor, tafakkur yuksak darajadagi bilish psixik jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayonning mohiyati inson tomonidan voqelikning faol ijodiy aks ettirish va o‘zgartirishdan iborat. Tafakkur bevosita idrokda anglaymaydiganlarni ochib beradi; u olamni ahamiyatli aloqalar va munosabatlarda, uning turli xildagi vositalarida aks ettiradi. Tafakkurning asosiy vazifasi real bog‘liqliklarga asoslangan zarur aloqalarni vaqt va fazodagi tasodifiy mos kelishlardan ajratgan holda aniqlashdan iborat. Tafakkur jarayonida tasodifiydan zaruratga, ayrimlikdan umumiylikka o‘tish sodir bo‘ladi.

Shunday qilib, ***tafakkur***ni voqelikni umumlashtirilgan va vositalangan aks ettirish sifatida ta’riflash mumkin. Bundan tafakkurning muhim belgilaridan biri ***umumlashtirish***dan iboratligi kelib chiqadi. Voqelikni umumlashtirgan holda aks ettirish birgina odam va zamondoshlarining emas, balki, o‘tmish avlodlarining ham tajribasini qayta ishlab chiqish natijasidir. Bu tajriba til yordamida og‘zaki va yozma nutqda (o‘qituvchilar ma’ruzalarida, kitob, darsliklarda va h.k.) Ifodalangan. Shuning uchun tafakkur ko‘plab odamlar bilimlarini umumlashtiradi.

Tafakkur jarayonida inson amaliy faoliyat, obrazlar va tasavvurlar, modellar, chizmalar, belgilar, til kabi jismli va ijtimoiy olamning ahamiyatli aloqa va munosabatlariga kirib borish maqsadida, insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan turli xildagi vositalardan foydalanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Tafakkurning o‘ziga xos xususiyati bilish yoki amaliy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan u yoki bu vazifani bajarish bilan bog‘liqligidan iborat. Tafakkur muammoli vaziyatdan, tafakkurning maqsadi bo‘lgan savolga javobdan boshlanadi.

Tafakkur muammosini ko‘rib chiqqan a.a.smirnov tafakkur va ***aqliy jarayonlarning assotsiativ tarzda kechishi***ni tafovutlash zaruriyati haqida ogohlantirgan edi. Gap shundaki, aqliy faoliyatda biz assotsiatsiyalardan keng foydalanamiz, chunki ular tafakkur masalalarini echishda ahamiyatli yordam ko‘rsatadi. Aqliy jarayonlarning assotsiativ kechishida holat o‘zgacha bo‘ladi. Muhim tafovut shundan iboratki, bu vaziyatda o‘z oldimizga hech qanday maqsad qo‘ymaymiz, chunki hech qanday vazifani bajarmaymiz. Bunda bir jarayon ikkinchisi bilan almashadi, chunki ular bir-biri bilan assotsiativ tarzda bog‘langan bo‘ladi. Tafakkur jarayonlarining assotsiativ tarzda kechishi ko‘p hollarda inson toliqqan bo‘lib, hordiq olishni xohlayotganida kuzatiladi. Uyquga ketishdan oldin xayolingizdan ketma-ket turli xildagi o‘ylar o‘tishini kuzatgansiz. Mana shu o‘ylar ma’lum assotsiatsiyalarga kiradi.

Tafakkurning alohida muhim o‘ziga xos xususiyati – bu uning nutq bilan uzluksiz aloqasi. Tafakkur va nutqning bunday aloqasi, avvalambor, fikrlarning, hatto, nutq tovush shakliga ega bo‘lmagan holat, masalan, kar-soqov odamlarda ham nutq shakliga mujassamlashtirilishida o‘z ifodasini topadi. Biz doimo so‘zlar orqali fikr yuritamiz.

Qisqartirilganlik, muxtasarlik, ixchamlilik xususiyatiga ega bo‘lgan yashirin, tovushsiz, ichki nutq insonning tafakkur mexanizmi bo‘lib hisoblanadi.

Nutq tafakkur qurolidir. Ma’lum fikr so‘zlar bilan ifoda etilganida tafakkur jarayoni amalga oshiriladi. Fikrni so‘z bilan ifoda etish – ifodalash motivi (nutqiy maqsad), ichki nutq, fikrni tashqi tomondan nutqiy ifodalash kabi bosqichlaridan iborat bo‘lgan murakkab jarayon.

Tafakkur – bu narsalar mohiyatini ochib beruvchi g‘oyalar harakati. Uning natijasi obraz emas, balki ma’lum bir fikrdir. Tafakkur – bu kiritilgan yo‘nalishli-tadqiqiy, qayta o‘zgarishli va bilish xususiyatiga ega bo‘lgan harakatlar va muolajalar tizimini taxminlovchi alohida turga ega bo‘lgan nazariy va amaliy faoliyat.

Tafakkur moddiy olam qonuniyatlari, tabiat va ijtimoiy-tarixiy hayotdagi sababiy-oqibat aloqalari, insonlar psixikasi qonuniyatlarini tushunish imkonini beradi. Aqliy faoliyat natijalarini qo‘llash sohasi bo‘lgan amaliyot tafakkur faoliyatining manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Tafakkur psixik faoliyat sifatida miyaning vazifasi hisoblanadi. Oddiy psixik jarayonlar, masalan, sezgilar uchun asos vazifasini o‘taydigan yuqoriroq darajadagi miya jarayonlari tafakkurning fiziologik asosini tashkil etadi. Lekin hozirda tafakkur jarayonini ta’minlovchi barcha fiziologik tuzilmalarning o‘zaro ta’sir etish tartibi va ahamiyati haqida aniq fikr mavjud emas. Tafakkur faoliyatida miya peshona qismlari alohida ahamiyatga ega ekanligi shubhasizdir. Bundan tashqari, bosh miya po‘stlog‘ining tafakkurni gnostik (bilish) vazifasi bilan ta’minlovchi doirasi, shuningdek, tafakkur jarayonini ta’minlovchi miya nutq markazlari ham katta ahamiyatga ega.

Tafakkur jarayonida fikr paydo bg‘ladi,bu fikrlar insoning ongida muhim tushunchalarni shaklini oladi.Tafakkur nutq–til bilan chambarchas bog‘langan. Isonda tafakkur va nutq bg‘lganligi tufayli u hayvonlardan farq qiladi va shu sababli u ongli mavjudoddir.Inson g‘z atrofidagi olamda bg‘lgan buyumlar va hodisalarni ongli ravishda eslab qoladi hamda esga tushuradi va ongli ravishda harakat qiladi.Inson g‘z tafakkuri orqali ongi bilan hayvonat olamidan ajralib chiqan hamda jahonning hukmdoriga aylangan.Tafakkur inson bilish faoliyatining yuksak bosqichi hisoblanib,uning yordami bilan atrof -muhitga aloqador qonuniyatlar ochiladi, bunyodkorlik ishlari rg‘yobga chiqariladi,jamiyatning istiqbolli rejalari yaratiladi,tabiatga nisbat o‘rnatiladi. Taraqqiyot (progrees) madaniyat, jamiyat, shaxs kamoloti negizida salohiyat majmuasi tarzida yuzaga keluvchi, rivojlanishni harakatlantiruvchi – tafakkur yotadi. Inson g‘z tafakkuri, nutqi,ongi mavjudligi tufayli dunyodagi,borliqdagi mavjudotlardan ham mazmun ham miqdor jihatdan yuksak kamolot darajasiga kg‘tarilgan. Biz yerning qimirlamay turgaligini quyosh esa yer atrofida aylanayotganligini kg‘ramiz.Ko‘p asrlar davomida juda kg‘p kishilarning qilgan fikriy faoliyati natijasidagina,uzoq davom etgan kuzatishlar va tadqiqotlar natijasidagina haqiqatda quyosh yer atrofida aylanmasdan,balki yer g‘z g‘qi atrofida va quyosh atrofida aylanayotganligi aniqlandi. Demak, quyoshning harakati tg‘g‘risidagi bizning bevosita idrokimiz voqelikka, haqiqatga tg‘g‘ri kelmas ekan-voqelikning tg‘g‘ri aks etishi,ya`ni haqiqat tafakkur yordami bilan aniqlanadi. Yuqoriroq bosqichlarda bunday fikrlash takakkur jarayonidagi hosil bg‘lgan tushunchalar ularning chinligini yoki chin emasligini aniqlashda ifodalanadi. Tafakkur faoliyati muayyan maqsadga qaratilgan alohida ongli jarayon ta’sirida sodir bg‘ladi. Bosh miyaning uchaskasidagi faoliyat emas, balki butun bosh miyaning biror

pg‘stining biror uchaskasidagi faoliyat mana shu jarayonning fizologik asosidir. Tafakkur faoliyati uchun avvalo analizatorlarning miyasidagi uchlari g‘rtasida vujudga keladigan murakkab bg‘lanishlar muhim ahamiyatga egadir. Analizatorlarning bosh miya pg‘stidagi uchaskalari bir biridan keskin farq ajralgan holda emas,balki bir –biriga tushunib,bir –biridan chambarchas bog‘lanib ketganligi sababli mazkur bog‘lanishlarning vujudga kelishi yuqorida aytib g‘tilganidek, tafakkurning maxsus nerf-fizologik mexanizmlaridir. Bunda ikkinchi signallar tizimining bog‘lanishlari birinchi signal tizimidagi bog‘lanishlarga tayanadi. Tafakkur muayyan bir narsaga qaratilishi uchun nerv –fiziologik asos bg‘lgan oriyentrovka refleksi tafakkur jarayonlarida katta rol g‘ynaydi. G‘arb psixologlari tomonidan yaqinda g‘tkazilgan tadqiqotlarda miyaning tuzilishi odamning intellektlilik darajasiga bog‘liqligi, ya`ni ``ziyoli`` yoki ``intelleklilik `` odamlarda bosh miya pg‘stidagi analizatorlarning uchlari juda ham zich joylashgan bg‘lib,ularda g‘tkazilgan tafakkur darajasini aniqlash kabi testlardan ma`lumotlarni tez anglab olish va uning mohiyatni tushunish boshqalarga nisbatan tezroq va samaraliroq bg‘lishini aniqlagan. Biz sezgi, idrok vositasi bilan bilib olishimiz mumkin bg‘lmagan narsa yoki hodisalarni, narsa yoki hodisalarning xususiyatlarini, ularning bog‘lanish va munosabatlarini tafakkur vositasi bilan bilib olamiz. Biz tasavvur qilishimiz mumkin bg‘lgan kg‘pgina hodisalar bor. Narsa yoki hodisalar tg‘g‘risidagi eng muhim bog‘lanishlar va munosabatlar tafakkur yordami bilan ochiladi. Siz qalamni barmoqlaringiz bilan 20 sm balandda ushlab turibsiz. Barmoqlaringizni ochib yuborsangiz qalam stol ustiga tg‘shadi, uning taqillagani eshitiladi.

Oldindan bilish muayyan maqsadni qg‘yishga va ana shu maqsadga muvofiq harakat qilishga imkon beradi. Odamlarning hozirgi amaliyoti bizning xilma - xil mehnatimiz natijasini oldindan bilish tufayli mumkin bg‘lmoqda. Mehnat faoliyati ayni vaqtda fikrlash faoliyati hamdir. Tafakkur yg‘li bilan aniqlangan abstrakt - nazariy qoidalar inson amaliyotida sinovdan g‘tkaziladi, (tasdiqlanadi yoki rad qilinadi), voqelikni xuddi shu yg‘l bilan eng tg‘g‘ri va aniq bilib olinadi. Tafakkur ongning voqelikni eng aniq, chuqur, tg‘liq, umumiylashtirib va bevosita aks ettirishga (bilishga) qaratilgan faoliyatdir, asosan narsalarni bevosita sezishimiz va idrok qilishimiz mumkin bg‘lmagan bog‘lanishlar va munosabatlarning aks etishidir. Fikrlar, hukmlar va tushunchalar dastlab idrok va tasavvur asosida vujudga keladi. Bu fikrlar xotirada mustahkamlanadi va sg‘ngra tafakkurning yuksakroq va murakkabroq jarayonlari uchun material (asos) bg‘lib qoladi. Odamning tafakkuri til bilan bevosita bog‘langandir. Fikr va muhokamalar, bilish va tajriba til yordami bilan shakllanadi. Insoniyat jamiyatida odamlar bir - birlari bilan til vositasi orqali fikr almashadilar.

Xulosa.

Tafakkur boshqa bilish jarayonlari kabi o‘zining individual xususiyatlariga ega bo‘lib, fikr yuritish faoliyatining shakllari, vositalari va operatsiyalarining kishilarda turlicha namoyon bo‘lishida o‘z ifodasini topadi. Tafakkurning mazmun-dorligi deganda, inson ongida tevarak-atrofdagi moddiy voqelik to‘g‘risidagi mulohazalar, tushunchalar qanday miqdorda joy olganligi nazarda tutiladi. Tafakkurning chuqurligi deganda, narsa va hodisalarning asosiy qonuniyatlari, sifatlari, bog‘lanishlari tafakkurimizda to‘liq aks etganligi tushuniladi. Tafakkurning kengligi o‘zining mazmundorligi, chuqurligi kabi sifatlari bilan muntazam aloqada bo‘ladi. Fikr doirasi

keng, bilim saviyasi yuqori, serg‘oya ijodiy izlanishdagi kishilarni aql-zakovatli, bilimdon, tafakkuri keng kishilar deyish mumkin. Tafakkurning mustaqilligi deganda, kishining hech kimning ko‘rsatmasisiz, ko‘magisiz, o‘zining aqliy izlanishi tufayli turli yo‘l, usul va vositalar topib, mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatini tushunish kerak. Tafakkurning mustaqilligi aqlning sertashabbusligi, pishiqligi va tanqidiyligida namoyon bo‘ladi. Aqlning sertashabbusligi deganda, insonning o‘z oldiga yangi muammo, aniq maqsad va konkret vazifalar qo‘yishini, yechimini qidirishda usul va vositalarni shaxsan o‘zi izlashi, aqliy zo‘r berib intilishi nazarda tutiladi. Aqlning pishiqligi vazifalarni tez yechishda, yecish paytida yangi usul va vositalarni tez izlab topishda ifodalanadi. Tafakkurning tanqidiyligi insonning, o‘z-o‘zini bahlash kabi yakka xususiyatlariga bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi. Agar tanqidiylik oqilona, muhim belgilarga, muammo mohiyatining to‘g‘ri ochilishiga asoslanib amalga oshirilsa bunday tanqidiylik obyektiv tanqidiylik deb ataladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
2. А.Х.Югай, Н.А.Мираширова “Общая психология” – Ташкент 2014.
3. Дружинина В.. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.
4. Samatova, N. (2023). TORTINCHOQLIK VA UNING PSIXOLOGIK SABABLARI. *ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR*.
5. Samatova, N. (2023). O‘zmir qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oilaning ro‘li. *ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR*.
6. Samatova, N. (2023). Shaxslararo muloqatda uchraydigan qiyinchiliklar. *ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR*.
7. Samatova, N. (2022). Oiladagi salbiy muloqatning farzand tarbiyasiga ta'siri. *Zamonaviy ilmiy va texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali*.
8. Davlataliyevna, S. N. (2022). Umumiy psixologoya va turli xil psixologik amaliyotlar. *Scientific Impulse*, *1*(5), 820-822.
9. Davlataliyevna, S. N. (2022). Psychology and its principles. *Scientific Impulse*, *1*(5), 823-826.
10. Саматова, Н., & Абдурасулова, С. (2023). Психологическая связь и межличностный конфликт в педагогическом общении. *Информатика и инженерные технологии*, *1*(1), 433-434.
11. Samatova, N. va Namuratova, M. (2023). Psixologiyada shaxsiy muammosi. *Kompyuter fanlari va muhandislik texnologiyalari* , *1* (2), 408-413.
12. Hakimova, S. (2023). Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar oniga ta'siri. *Zamonaviy psixologiya, pedagogikada fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi: muammolari va yechimlari* .

13. Samatova, N. va Subxiddinov, S. (2023). O‘z-o‘zini imidji va shaxsiy o‘zini o‘zi qadrlash muammosi. *Kompyuter fanlari va muhandislik texnologiyalari* , *1* (1), 435-437.

AGRISSIV HATTI – HARAKATLAR VA MAKTABLARDAGI ZO‘RAVONLIK

Samatova Nigora Davlataliyevna,
Abdurasulova Setora Oybek qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
nsamatova82@gmail.com

Annotatsiya: Agressiya va zo‘ravonlik o‘zaro bog‘liq tushunchalar bo‘lib, inson kayfiyatida agressiv holatlarning o‘sib borishi va to‘planishi oqibati sifatida zo‘ravonlikka olib kelishi mumkin. Agressiya inson xarakterida tug‘ma va tabiiy bir element sifatida, xuddi shuningdek, agressiyadan asli uzoq odamning favqulodda vaziyatda o‘z emotsiyalarini tuta bilmasligi, ularni nazorat qila olmasligi oqibatida vujudga kelishi mumkin. Zo‘ravonlik aslida inson xarakterining qusuri, uning kamchiligi hisoblanadi. Maktab bolalari internet orqali o‘zining yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelmaydigan ma’lumotlar bilan tanishmoqda, jangarilikni, agressiyani targ‘ib etuvchi, shakllantiruvchi turli xil o‘yinlarni o‘ynash orqali o‘zlarining ongosti sohasida agressiv xulqning shakllanishiga sabab bo‘lmoqdalar.

Kalit so‘zlar: Agressiya, zo‘ravonlik, konfilikt, konfliktli vaziyatlar, maktab, internet, passiv usul, faol usul, mantiqiy usul.

Kirish. Bugungi kunda agressiv xarakterli bolalar maktab o‘quvchilari orasida soni ortib borayotganligi psixologiyadagi dolzarb muammolar qatoridan joy egallashiga sabab bo‘ldi. Maktab bolalarida agressiv xatti-harakatlarning vujudga kelishi murakkab va ko‘pqirrali jarayon bo‘lib, unga ko‘pgina omillar o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Agressiv xatti-harakatlar oilada, tengdoshlar guruhida, oilaviy axborot vositasi ta’sirida shakllanishi aniqlangan.

Agressiya va zo‘ravonlik o‘zaro bog‘liq tushunchalar bo‘lib, inson kayfiyatida agressiv holatlarning o‘sib borishi va to‘planishi oqibati sifatida zo‘ravonlikka olib kelishi mumkin. Lotin tilida agressiya “hujum qilish” ma’nosini anglatadi. Agressiya inson xarakterida tug‘ma va tabiiy bir element sifatida, xuddi shuningdek, agressiyadan asli uzoq odamning favqulodda vaziyatda o‘z emotsiyalarini tuta bilmasligi, ularni nazorat qila olmasligi oqibatida vujudga kelishi mumkin.

Konfliktli vaziyatlarda ko‘pchilik o‘z instinktlari va hissiyotlari asosida o‘zini tutishga o‘rganib qolgan. Bunday holni ko‘pchilik qabul qiladi va aynan mana shu yo‘l to‘g‘ri deb biladi. Shu bois, konfliktli vaziyatda zo‘ravonlik ishlatilsa, birovning hayotiga tahdid solinsa, jismoniy kuch ishlatish qo‘llanilsa, ko‘pchilik, ziddiyat mavjud ekanligini hisobga olgan holda, bu vaziyatlarda “kechirimli bo‘lish” lozimligini, bunday holatning kelib chiqqanligini anglash mumkinligini